

## ILM NARSALARNING ENG FOYDALISIDIR

**Bozorova Ro'zigul SHarofovna**

*Osiyo xalqaro universiteti Tarix va filologiya kafedrasida dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Maqolada ilm narsalarning eng foydalisi ekanligi hamda dunyoda ilm olishning ahamiyati, ilm o'rganishning mashaqqati, ilm qadri, faqat ilm orqaligina har bir inson o'z hayot yo'lini yoritishi mumkin ekanligi haqida fikr va mulohaza yuritilgan. Qur'oni Karimda "Ilm olmoq farz ekanligi", Hadislarda "Beshikdan qabrgacha ilm izlang" degan payg'ambarimiz da'vati, Konfutsiy fikricha "Bilimsizlik - insoniyat uchun eng qorong'u tundur", Ibn Sino ta'biri bilan aytganda, "Ilm-narsalarning inson aqli bilan o'rganishlikdir" degan purma'no fikrlari asos qilib olingan.*

**Kalit so'zlar:** *Ilm, bilim, inson, Qur'oni karim, hadis, aql, olim, fuzalo, martaba.*

Insonni borliq olamdagi butun maxluqotlardan ajratib turadigan, insonni inson qilib turgan bu- uning ongidir. Ongning ozuqasi esa- bilish, o'rganish va ilmdir.

Oллоh Taolo insonni mukammal kilib yaratib, aslida bu dunyoga nima maqsadda kelganini anglasin deya unga aql hamda fikrlash ne'matini berdi. Darhaqiqat, biz doim nimanidir o'rganish, bilish va anglashga ehtiyoj sezamiz, chunki kechagi kun bugungiga, bugungi kunimiz esa, ertangiga o'xshamaydi. Ehtiyojlarimiz ortgani sari, moddiyat ma'naviyat va umuman hayot o'zgarib rivojlanib boraveradi. Akl zakovatda ilg'orlargina, bu dunyoga kelishining sababini anglab, to'g'ri maqsadlar qo'yib yashay oladi.

Ilk «O'qi» amri bilan boshlangan Qur'on, bilguvchilar va bilmaydiganlarni bir emasliklarini ta'kidlash bilan birga ilm egalarining darajalarini yuksalishining xabarini berishadi. Qur'oni karim ilmga targ'ib qilingan, ilmsizlik qoralangan. Ilk nozil bo'lgan oyatda ham «o'qi!», «o'qi!» deb buyuriladi. «Ilm» so'zi Qur'oni karimda 811 o'rinda turli ma'nolarda keladi[2]. Muqaddas kitobda: «Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja(martaba)larga ko'tarur» (Mujodala surasi, 11-oyat), deyilgan. Muqaddas manbaning Zumar surasi 9-oyatida "Yoki kechasi sajda qilgan va tik turgan holda ibodat qiluvchi, oxiratdan qo'rqadigan va Parvardigorining rahmatidan umid qiladigan kishi (bilan boshqalar barobarmi?!) Ayting: "**Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?!**" Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar. YA'ni "olimlar bilan johil (ilmsiz)lar ma'rifatda yoki mo'minlar bilan kofirlar savob va toatda yoxud payg'ambarni tasdiq etuvchilar bilan uni inkor etuvchilar Allohning huzurida teng bo'lmaydilar. Ya'ni jazo va mukofotda farq bo'ladi"[1] -deb ta'kidlangan. Bundan ko'rinadiki, faqat ilm o'rganish masalasida insonlar tenglikda tafovut bo'lishi Allohning so'zi sifatida qat'iy belgilab qo'yilgan.

Ilm- nurdir. Ilm olayotgan inson esa, korong'ulikdan yorug'lik tomon intilayotgan yo'lchi misoli, ko'lida ilm atalmish mayoq bilan ziyoli kelajak tomon intiladi.

O'tmishdan ilm olib yuksalishda bizga haqiqiy namuna bo'ladigan buyuk olimu mutafakkirlarimiz juda ko'p. Ularning sharaflari nomlari tarix zarvaraqlarida, durdona asarlari bilan qolgan. SHulardan biri hadis ilmining sultoni vatandoshimiz Imom Al Buxoriydir. Muhaddis hadislarining aksariyati husnixulk, odob axloq hamda ilm olish va ilm o'rgatish haqidadir. U zotning o'zi benazir qobiliyat sohibi bo'lib, ilm talabida umrining oxirigacha Xuroson, SHom, Misr, Jazira va Hijoz o'lkalari, Basra, Bag'dod, Kufa kabi shaharlarda bo'lib dunyo kezib, bizga qariyb 30 ga yaqin asarlarini yozib qoldirgan. Imom Buxoriy jami olti yuz ming hadis to'plab, shundan yuz ming sahih, ikki yuz ming zaif hadisni yod olgan, bularni to'plashda mingdan ortiq shayxlarning huzurida bo'lgan. Ushbu hadislar ichidan sahihlarini aniqlab, ular asosida o'zining mashhur «Al-Jome' as-sahih» kitobini o'n olti yilda yozib tugatgan.

Buyuk muhaddis Imom al Buxoriy tomonidan aytilgan ushbu fikrlar naqadar ma'nodor, barcha zamonlar uchun teng ahamiyatli hamda zamonaviy dunyoning shoriga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay». Zero, yana bir mutafakkir **“Ilm - narsalarning eng foydalisidir”** degan fikrni aytib qoldirgan. Hadislarda “Agar bu dunyoni o'ylasang tijorat qilgin, agar u u dunyoni o'ylasang ibodat qil, agar har ikki dunyo saodatini o'ylasang ilm bilan shug'ullaning” deb aytilgan. Faqat ilmgina insonni har qanday kuniga yaraydigan kuch, yaqin do'st, sodiq hamroh ekanligini har bir inson bilsa bu dunyoda hayotning zavqi va mohiyatini tushunsa ajab emas.

Rivoyatlardan birida bunday deyiladi: Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan: “Amallarning qay biri afzalroq?” deb so'radi. U zot alayhissalom: “Ilm”, dedilar. U kishi ikkinchi, uchinchi bor so'radi. Rasululloh unga avvalgidek javob berdilar. SHunda u: “Ey Rasululloh, sizga salomlar bo'lsin, men amal haqida so'rayapman”, dedi. Nabiy alayhissolatu vassalom: “Alloh amallarni ilmsiz qabul qiladimi?” dedilar.

Yana bir boshqa rivoyatda esa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Banda sadaqa qiladigan narsaning eng afzali ilm o'rganmog'i so'ng uni o'zidan boshqalarga o'rgatmog'idir”, dedilar. Rasululloh (s.a.v.) ko'plab hadislarda ilm egallashga, olimlarni e'zozlashga chorlaganlar. Jumladan: «Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir», deb marhamat qilganlar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar: **“Ilmdan bir bob o'rganib tong ottirishing yuz rakat namoz o'qishingdan afzaldir”** (*Imomi ibn Abdulbar Abu Zarr rivoyat etgan*) [3]. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yana aytadilar: **“Kishi ilmdan bir bob o'rganishi uning uchun dunyo va undagi narsalardan yaxshiroqdir”** (*Imom ibn Abdul Bar Hasan Basriydan mavquf holda rivoyat qilgan*). Imom SHofe'iy rahmatullohi alayh aytadilar: *“Ilm o'rganish nafl ibodatidan afzalroq”*. Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: U kishi aytdilar: “Resululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir. Ilmni o'z ahlidan boshqa o'ringa qo'yuvchi to'ng'izlarga javhar, dur va tillo taquvchi inson kabidir”**, dedilar”. Ibn Moja rivoyat qilgan[4].

Bilmaslik ayb emas, o'rganishga intilmaslik aybdir. Ibn Mas'ud inson bilmaganini bilishi ham ilmdir, deydi. Chunki inson bilmaganini bilsa, o'rganishga intiladi.

Ibn Hajar Asqaloni ushbu oyatni: «Albatta, darajalarni ko'tarish ulug' fazlu marhamatga dalolat qiladi va dunyoda oliy martaba, shon-shuhrat kabi ma'naviy yuksaklikni hamda jannatdagi oliy martaba kabi hissiy yuksaklikni qamrab oladi», deya tafsir qilgan.

Hozirgi zamonda o'qib o'rganish uchun manbalar talaygina. Internet tarmog'i ham bu borada faol. Ammo, ta'lim tarbiya masalasida shubhasiz, ulamolarimizning asarlari katta axamiyatga ega. Negaki, aynan SHarq va bizning O'rta Osiyo olimlarining ma'naviyati, axloqiy va tarbiyaviy asarlari, ularning hayot yo'llari bizning qadriyatlarimizga va mentalitetimizga mosdir. Tarbiya va ta'lim olish masalasida G'arb yunalishi bizga to'g'ri kelmaydi. SHuning uchun ham, biz ko'proq o'zimizning vatandoshlarimizning merosini o'qib o'rgansak, hadislarni o'qib, ma'nolarini anglab hayotimizga tadbik etsak, ko'zlangan maqsadlarga erishamiz. YA'ni, axlokiy jihatdan mukammal va shu bilan birga zamonaviy etuk bilimli avlodlarni etishtirib chiqqan bo'lamiz. Bu borada biz pedagoglarning hissamiz katta deb o'ylayman. Ta'lim tizimida davlat standartlari bilan birga o'tmishdagi muhaddislarning, xususan Imom Al Buxoriyning hadislarini o'rganib, uni tahlil qilib, o'quvchilarimizga asl mazmunini bayon kilib bersak, ular ham milliy merosimizni o'qib o'zlashtirib ham hikmatli hadislardan ibrat olgan bo'ladilar.

«Sahihul Buxoriy» asarining birinchi jildida ilm olishga doir hadislar to'plangan. Asarda: «Olloh taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilgaydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Olloh taolo kilayotgan ishlaringizda xabardordir» - deyilgan. Va yana ilm olmok uchun «Yo rabbiy, ilmimni ziyoda kilgin, deb ayt,» deb oyati karimadan keltirilgan.

Xoh dunyoviy bo'lsin, xoh diniy ilm olish hammamizga farz kilingandir. Farz bu Ollohning musulmonlarga buyurgan, bajarish shart bo'lgan qat'iy buyrug'idir. Ilm olishning ulug'langanligi va zarurligini shundan ko'rishimiz mumkin. Demak, inson ongi o'sib dunyoqarashi kengayishida, har tomonlama komil shaxs bo'lishida, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishida ilm olib rivojlanishning ahamiyati katta ekan. Olloh barchamizni ilmi insonlardan qilsin.

Yovuzlik ustidan ezgulik, razolat ustidan adolat, yomonlik ustidan yaxshilik g'alaba qozongani singari ilm ham hamisha jaholatdan ustun kelgan. Islom ilmsizlik va johillikni qoralaydi. Jaholat hayotimizni barbod, turmushimizni kasod qiladi. Ma'rifat esa qalbgga sayqal berib, ma'naviyatimizni go'zallashtiradi, shon-shuhrat keltiradi.

Aziz ilm ahllari "Ilm narsalarning eng foydalisidir". Siz har kuni shijoat ila olayotgan ushbu bilimlaringiz bilan avvalo o'z hayotingizni, so'ngra yaqinlaringiz hayotini yaxshi tomonga o'zgartira olishingizga ishonaman. Yodingizda bo'lsin: 100 yilda bir keladigan buyuk inson – Sizsiz!

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Abdulaziz Mansur Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano Standart, 2019.-624 b.
2. <https://kknews.uz/uz/15432.html>
3. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/10010-ilm-olish-fazilati>
4. <https://kukaldosh.uz/27/08/2022/8877>
5. Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy – Toshkent: “Hilol nashr”, 2016. – 672.
6. SHarq hikoyat va rivoyatlari Birinchi kitob. “SHarq” nashriyot-matbaa - Toshkent -2015. 525-b.
7. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 132–135.
8. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. Journal of new century innovations, 35(1), 79-80.
9. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 132–135. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24060>